YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA ZIYORAT-GOHLARNING O‘RNI

Jamoldinova O. R.
Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti
bosh ilmiy xodimi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qo'qon shahridagi ziyoratgohlar va tarixiy muqaddas joylarning yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, ziyoratgohlar orqali milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani asrash va ma'naviy merosni yosh avlodga yetkazish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, turizm, ziyoratgoh, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, ma'naviy boylik, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, texnologiya.

Аннотация. В данной статье проанализирована роль святынь и исторических священных мест города Коканда в формировании патриотических чувств у молодежи. Также рассматриваются вопросы формирования национального самосознания, сохранения исторической памяти и передачи духовного наследия молодому поколению посредством посещения святынь.

Ключевые слова: патриотизм, туризм, святыни, национальное самосознание, национальная гордость, духовное богатство, цифровизация, искусственный интеллект, технологии.

Abstract. This article analyzes the role of the pilgrimage sites and historical sacred places of Kokand in fostering patriotic values among young people. It also examines the significance of these sacred sites in strengthening national identity, preserving historical memory, and transmitting the nation's spiritual heritage to the younger generation.

Keywords: patriotism, tourism, pilgrimage sites, national identity, national pride, spiritual heritage, digitalization, artificial intelligence, technology.

Bugungi kunda yosh avlodni vatanga muhabbat, milliy g'urur, fidoiylik, ma'naviy tozalik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonda faqat darslik va ma'ruzalar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy tarbiyaviy vositalardan ham foydalanish muhim. Ana shunday amaliy tarbiyaviy maskanlardan biri – ziyoratgohlardir.

Insoniyat tarixi davomida muqaddas joylarni ziyorat qilish an'anasi

turli xalqlar, dinlar va madaniyatlarda muhim o'rin tutib kelgan. Islom dinida ham ziyorat alohida o'ringa ega bo'lib, u nafaqat diniy ibodat, balki axloqiy tarbiya, ma'naviy yuksalish va tarixiy xotirani saqlash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ziyoratgohlar inson qalbida ma'naviy poklanish va o'tmishga hurmat tuyg'ularini uyg'otadi. Shuningdek, ular tarbiyaviy nuqtai nazardan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Qo'qon shahri, o'zining boy tarixi va muqaddas ziyoratgohlari bilan yurtimiz ma'naviy hayotida alohida o'rin tutadi. Bu joylarni yoshlar bilan birga ziyorat qilish, ularga tarixiy shaxsiyatlar hayoti va faoliyati haqida so'zlab berish – vatanparvarlik tuyg'usini oshirishning samarali yo'llaridan biridir.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish ustuvor maqsad etib belgilangan.

Belgilangan maqsadga erishishda milliy qonunchilikning takomillashtirilgani muhim omil bo'ladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror bilan ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etilganligi mamlakatimizda ziyorat turizmining ilmiy-amaliy, tashkiliyhuquqiyjihatdan takomillashtirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash imkonini berdi.

Islom ta'limotida qadamjolar va valiylar maqbaralarini ziyorat qilish mustahab amallardan hisoblanadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida qabrlarni ziyorat qilish nafsni tozalash va oxiratni eslatish vositasi sifatida targ'ib qilingan. Musulmonlar avliyolar, ulamolar, shahidlar va diyonatli zotlarning qabrlarini ziyorat qilish orqali ularning hayoti va faoliyatidan ibrat oladilar. Bu esa, ularni ham ma'naviy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ziyoratgohlar, avvalo, odamlarning qalbini tozalash, iymon va taqvoni mustahkamlashga xizmat qiladigan muqaddas joylardir. Bu yerlarda inson Allohga yaqin bo'lish, o'z nafsini tahlil qilish, tavba va istig'for qilish imkoniyatini topadi. Ziyorat paytida tilaklar, duolar va zikrlar bilan inson Allohga bo'lgan muhabbatini ifoda etadi. Ma'naviy tarbiyaning muhim jihatlaridan biri bu o'tmishni unutmaslik, tarixiy xotirani asrab-avaylashdir. Ziyoratgohlar orqali biz xalqimizning buyuk arboblari, ulamolari, vatanparvarlari, din va ilm yo'lida jon fido qil-

gan insonlar hayoti bilan tanishamiz. Bu esa, yosh avlodda fidoyilik, mehnatsevarlik, Vatanga va millatga sadoqat tuyg'ularini shakllantiradi.

Ziyorat qilish jarayonida inson o'zini tarbiyalaydi: u odob-axloqqa rioya qiladi, oromlik va sokinlik bilan yuradi, har qanday beodoblikdan tiyiladi. Ziyorat madaniyati orqali insonlarda jamiyatda o'zini tutish, boshqalarga hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'lish qobiliyati shakllanadi. Masalan, ziyorat davomida boshqa ziyoratchilarga to'siq bo'lmaslik, tinchliknisaqlash, odobli suhbat qilish – bularning barchasi axloqiy tarbiyaning bir ko'rinishidir.

Shu bilan birga, ziyorat insonni kibr va xudbinlikdan tozalaydi. Avliyolarning hayoti, ularning kamtarligi, ibodatga bo'lgan muhabbati insonni o'z hayotini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Bu esa, axloqiy yuksalishga olib keladi.

Ziyoratgohlar – bu xalqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosidir. Ular orqali biz o'z ildizlarimizni, xalqimizning boy ma'naviyati va tarixini yodga olamiz. Masalan, Hazrati Bahovaddin Naqshband, Shoh Zinda, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi zotlarning ziyoratgohlari nafaqat diniy, balki milliy o'zligimizni anglash va uni saqlashda ham katta ahamiyatga ega.

Bunday ziyoratlar yosh avlodda faxr tuyg'usini uyg'otadi, o'z xalqining buyuk shaxslari bilan g'ururlanish hissini mustahkamlaydi.

Shuningdek, ularga ta'lim-tarbiya sohasidagi ulkan yutuqlarning zaminini tushunishga yordam beradi.

Qo'qon shahri tarixiy shahar sifatida, o'z bag'rida bir ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolarni asrab-avraylab, kelajak avlodga yetkazmoqda. Mazkur ziyoratgohlar o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ziyoratgohlar ma'naviy tarbiya maskani sifatida ham muhim. Bu yerda ma'rifiy suhbatlar, diniy-ma'naviy darslar o'tkazilib, yoshlar islom axloqi va vatanparvarlik qadriyatlariga oshno bo'ladilar. Ziyoratgohlarda amalga oshiriladigan ziyorat jarayoni yoshlarni ziyorat odobiga rioya qilishga tayyorlaydi. Ular ziyorat odobini o'zlashtirib boradilar. Jumladan, ziyorat qilish jarayonida yoshlarga:

Tarixiy shaxslarning hayoti, faoliyati va yurt uchun qilgan xizmatlari haqida ma'lumot berish;

Ta'lim muassasalarida an'anaviy shaklda haryil tashkil etiladigan "Tarixiy xotira haftaligi", "Ziyorat – ma'naviyat sabog'i" loyihalari, "Yurt qalqoni bo'lganlar" mavzusidagi tadbirlar o'quvchi-yoshlarda tarixiy shaxslar hayotiga oid ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Qadriyatlarimizga hurmat tuyg'usini singdirish,

O'zligini anglash, millat tarixi va madaniyatiga muhabbat uyg'otishga erishiladi.

Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Yoshlarni milliy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda va ziyoratgohlar haqida bilim berishda sun'iy intellektni qo'llash katta imkoniyatlarni ochib beradi. Sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'nalishlari sifatida qo'yidagilarni ko'rish mumkin:

Interaktiv virtual ekskursiyalar (3D/VR)

Ziyoratgohlarni sun'iy intellekt asosida modellashtirish orqali yoshlarga uyda yoki auditoriyada o'tirgan holda Qo'qondagi ziyoratgohlarga, safarqilish, imkoniyaratiladi.Masalan, ziyoratgohm 3D formatda ko'rish, tarix haqida audio-ta'rif eshitish mumkin.

Al-gid yordamida ma'lumot taqdim etish.

Sun'iy intellektga asoslangan audio yoki chat-botlar orqali ziyoratgoh haqida yoshlar savollar berib, interaktiv ma'lumot olishlari mumkin. Bu ularda qiziqishni kuchaytiradi va bilimni samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Mashinali tarjimalar va multimediya content.

Ziyoratgohlar haqidagi ma'lumotlarni turli tillarda (ayniqsa, o'zbek, rus va ingliz tillarida) AI yordamida tarjima qilish orqali xorijiy yoshlar va sayyohlar uchun ham milliy merosni keng targ'ib qilish mumkin.

AI asosida ta'lim platformalarida integratsiya.

Masofaviy ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom va h.k.) Bilan integratsiya qilingan holda, AI yordamida: ziyoratga oid testlar tuzish, yoshlarning qiziqish darajasini aniqlash, avtomatik taqriz va baholash imkoni mavjud.

Foydali tavsiyalar tizimi.

Yoshlarning qiziqishlariga qarab sun'iy intellekt ularga qanday ziyoratgohlarga borish, qaysi tarixiy shaxslar haqida ko'proq o'qish kerakligi bo'yicha tavsiyalar bera oladi. Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish, ziyorat va ma'naviy tarbiyani zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiya qilish imkonini beradi. Bu esa, yosh avlodda nafaqat vatanga muhabbat, balki yangi texnologiyalarga ochiqlik, zamonaviy dunyoqarashni ham shakllantiradi. Ziyoratgohlar faqat diniy joylar bo'libgina qolmasdan, milliy o'zlikni tiklash, vatanga sadoqatli, tarixiy xotiraga hurmat bilan qaraydigan yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ziyoratgohlarni ta'limtarbiya jarayoniga samarali integratsiya qilish – bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF158-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2023.
2. Mamadaliev Sh. Milliy g'oya va mafkura. – T.: TafakkurBo'stoni, 2019.
3. Sodiqov A. Ziyorat va ma'naviyat. – T.: Islom sivilizasiyasi markazi nashriyoti, 2022.
4. Yusufov A.H. Ma'naviyat asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2020
5. Qo'qon shahri tarixi va me'moriy yodgorliklari. – T.: Fan, 2015.
6. G'afurov A. Ma'naviyat va vatanparvarlik. – T.: Ma'naviyat, 2018.
7. www.ziyorat.uz
8. www.lex.uz

